REZYUME. Ushbu maqolada xoreografiya fanlararo ilmiy soha sifatida ko‘rib chiqiladi, uning funktsiyalari, tadqiqot usullari va shaxsning jismoniy, kognitiv va hissiy rivojlanishi uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается хореография как междисциплинарное научное направление, анализируются ее функции, методы исследования и значение для физического, когнитивного и эмоционального развития личности.

SUMMARY. This article examines choreography as an interdisciplinary scientific field, analyzing its functions, research methods, and significance for the physical, cognitive, and emotional development of the individual.

VOKAL SAN’ATI – INSON ICHKI DUNYOSINING BADIY IFODASI

Kamar Seytjanova - *dotsent*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: vokal, san’atshunoslik, estetik ifoda, ovoz, ijro mahorati, musiqiy obraz.
Ключевые слова: вокал, искусствоведение, эстетическое выражение, голос, исполнительское мастерство, музыкальный образ.
Key words: vocals, art history, aesthetic expression, voice, performance skills, musical image.

Vokal musiqiy tovushlarning inson ovozi orqali badiiy ifoda topishidir. Unda ijrochining mahorati, nafas nazorati, diktsiya, ovoz rangi, diapazon, hissiy ohang bir butunlikda uyg‘unlashadi. Vokal san’ati musiqiy ijrochilikning eng qadimiy va eng tabiiy turi bo‘lib, u orqali inson o‘z tuyg‘ularini, quvonch va iztiroblarini, muhabbat va orzularini ifoda etadi. San’atshunoslik nuqtayi nazaridan vokal inson ruhiyatining ovoz orqali badiiy tahlilidir.Vokal san’ati nafaqat musiqa, balki teatr, kinematografiya va adabiyot bilan uzviy bog‘liq san’at turidir. Inson ovozining tembri, diapazoni, dinamikasi orqali har bir ijrochi o‘z badiiy obrazini yaratadi. Shu bois vokal ijrosi san’atshunoslik tahlilida sahnaviy obraz yaratish vositasi sifatida o‘rganiladi. Masalan, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida ayollar ijro etadigan lirika janrlarida vokal nafaqat musiqa, balki ruhiy holat va milliy ohangdorlikni aks ettiradi. Bu esa vokalni milliy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashga asos bo‘ladi.Vokal san’atining badiiy qiymati asosan uch omilga tayanadi:ovoz tembri va texnikasi, ijrochi hissiy holati, musiqiy matn va sahna ifodasi. Ijrochining ovozi bu san’atdagi “rangsiz bo‘yoq”, ammo mahorat orqali u rangga kiradi, tovush orqali hislar uzatiladi. Shu bois san’atshunoslikda vokalni “hissiyot estetikasi” deb ham atash mumkin. Vokal san’ati insonning ichki dunyosini tovush, ohang va so‘z orqali ifodalovchi eng murakkab badiiy jarayonlardan biridir. San’atshunoslik tahlilida vocal, faqat musiqa emas, balki estetik obraz yaratish, madaniy kodni ifodalash, milliy ruhni tovushda gavdalantirish jarayonidir.

Vokal san’atining tahlili inson ovozining badiiy imkoniyatlarini, hissiyot uzatish mexanizmini va madaniy kontekstini chuqur o‘rganishni talab qiladi.San’atshunoslik tahlili odatda uch bosqichda olib boriladi, struktur tahlil ijroning texnik va formal tomonlarini (diapazon, nafas, artikulyatsiya, tembr) o‘rganadi.Semantik tahlil, vokal orqali uzatilgan ma’no, his-tuyg‘u va badiiy mazmunni tahlil qiladi. Kontekstual tahlil vokal asarini tarixiy, milliy, madaniy muhitda o‘rganadi. Bu uch yondashuv birgalikda vokal san’atining mazmuniy qatlamlarini ochadi.

Vokal san’atining o‘ziga xosligi, unda inson ovozi bir vaqtning o‘zida musiqa asbobi ham, ifoda vositasi ham bo‘lib xizmat qiladi. Ovoz tembri shaxsning ruhiy holatini ochuvchi vositasi hisoblanadi. Ohang va ritm hissiyotning dinamik oqimini belgilaydi. So‘z va musiqaning uyg‘unligi badiiy obrazni shakllantiradi. San’atshunoslik tahlilida vokal ijrosi “inson ruhining ovozdagi shakli” sifatida qaraladi. Har bir ijrochi o‘z ovozi orqali o‘z shaxsiy dunyoqarashini aks ettiradi. Vokal san’ati har bir xalqning milliy estetik qarashlari bilan bog‘liq. Masalan, Italiya vokal maktabi, bel canto (chiroyli kuylash) uslubi bilan, Rossiya vokal maktabi, dramatik chuqurlik va emotsional kuch bilan,

Qoraqalpoq vokal ijodi , tabiiy ohangdorlik, lirizm va dard orqali ajralib turadi. Qoraqalpoq ayol vokalchilari ijrosida hissiy tozalikka va so‘z ohangdorligiga urg‘u beriladi. Ularning kuylari ko‘pincha xalqona lirizm bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi. Bu esa milliy vokalning estetik mohiyatini chuqurlashtiradi. Bugungi san’atshunoslikda vokal tahlili quyidagi yangi yo‘nalishlarda olib borilmoqda, texnologik tahlil vokalni mikrofon, ovoz yozish va ovoz qayta ishlash vositalari orqali baholash, psixologik tahlil ijrochining hissiy holati, ichki energiyasi, sahnaviy xarizmaları, multimedia tahlili vokalning video, sahna harakati, yorug‘lik va tasvir bilan uyg‘unligi hisoblanadi.Demak, vokal endi nafaqat musiqiy, balki ko‘p qirrali san’at shakli sifatida qaralmoqda.

San’atshunoslik tahlilida vokal san’ati, inson ruhining musiqiy ifodasi, badiiy tajriba vositasi va milliy estetik dunyoqarashning ifodachisidir. Vokal ijrochiligining tahlili texnik mukammallikdan tashqari, ijrochining ichki dunyosini, his-tuyg‘u kuchini, madaniy ildizlarini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun vokal san’ati san’atshunoslikda inson estetik tabiati va ijodiy energiyasining eng sof ko‘rinishi sifatida o‘rganiladi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda raqamli texnologiyalar, studiya yozuvlari, mikrofon akustikasi vokal san’atining yangi bosqichini yaratdi. Ammo shunga qaramay, tirik ovoz ijrosi, sahnadagi tabiiy vokal hali ham san’atning eng sof shakli deb e’tirof etiladi. Vokal san’ati, inson qalbining ovozdagi ifodasi. U musiqiy shakl orqali badiiy mazmunni yetkazadi, milliy madaniyatni ifodalaydi va estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. San’atshunoslik tahlilida vokalni faqat texnik jarayon emas, balki inson ruhining san’atdagi ovozi sifatida baholash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Musiqa san’ati nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston san’at akademiyasi, 2019.
2. Qodirova M. Vokal madaniyati va ijro san’ati. – Toshkent, 2021.
3. Nurimbetova S. Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida lirizm va vokal ifoda. – Nukus, 2020.
4. Kuznetsova L. Vokalnoye iskusstvo: istoriya i sovremennost. – Moskva, 2018.

REZYUME. Mazkur maqolada vokal san’atining san’atshunoslikdagi o‘rni, uning badiiy va estetik mohiyati, shuningdek, inson hissiyotlarini musiqiy tovush orqali ifodalashdagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется роль вокального искусства в искусствоведении, его художественная и эстетическая сущность, а также особенности выражения человеческих эмоций через музыкальный звук.

SUMMARY. This article analyzes the role of vocal art in art history, its artistic and aesthetic essence, as well as its specific features in expressing human emotions through musical sound.

ITTIFOQ DAVRIDAGI QORAQALPOQ MADANIYATI VA SAN’ATINING RIVOJLANISHI: TEATR, MUSIQIY JANRLAR VA INSTITUTSIONAL SHAKLLANISH

Qalbay Turdiev – *dotsent*

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: qoraqalpoq teatri, filarmoniya, simfonik orkestr, opera, balet, repertuar siyosati, professionalizatsiya, institutsionalizatsiya.

Ключевые слова: каракалпакский театр, филармония, симфонический оркестр, опера, балет, репертуарная политика, профессионализация, институционализация.

Key words: karakalpak theater, philharmonic, symphony orchestra, opera, ballet, repertoire policy, professionalization, institutionalization.

Sovet modernizatsiyasi sharoitida O‘rta Osiyo respublikalari madaniy hayoti keskin ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga moslashish jarayonida yangicha institutlar, san’at maktablari va mafkuraviy yo‘nalishlar tizimi orqali qayta shakllandi. 1920-1930 – yillarda